

Yoshlar bilan ishlash, tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish, ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumot

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ta'lim va tarbiya tizimining yangi, ijobiy qiyofasini yaratish hamda yoshlar bilan ishlash, ma'naviy-ma'rifiy soha ishini takomillashtirish quyidagi ishlar tashkil etildi:

Ta'lim-tarbiya jarayoniga asosiy shtatdagi 277 nafar professor-o'qituvchi va 21 nafar tyutor jalb etilgan. Ishlar Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor rahbarligida Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, institut direktorlarining va fakultet dekanlarining tegishli o'rinbosarlari, tyutorlar, psixolog, Xotin-qizlar masalalari bo'yicha mas'ul, profilaktika inspektori, Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti hamda professor-o'qituvchilar hamkorligida olib boriladi.

Talabalarining ijtimoiy-psixologik holatini o'rganish uchun mutaxassislardan iborat ijtimoiy va pedagogik-psixologik xizmat guruhi tashkil etilgan; guruh faoliyati Xotin-qizlar masalalari bo'yicha tuzilma va universitet psixologi ishlari bilan muvofiqashtiriladi.

Talaba-yoshlar va ularning ota-onalari murojaatlarini tezkor qabul qilish uchun 2025-yil 6-dekabrda "Tyutorga murojaat" (@tsuos_tyutormurojaat_bot) axborot tizimi ishga tushirilgan. Ushbu kanal masalani mas'ul tyutorga manzilli yetkazish va tezkor javob olish imkonini beradi.

TDSHUda shakllangan an'anaga ko'ra 2025-2026 o'quv yili davomida ma'naviy va ma'rifiy muhitning sog'lomligi quyidagi 7 muhim ustunga tayanib amalga oshirildi:

- Samimiy muloqot va bag'rikenglik
- Halollik va adolat mezon
- O'z ildizlariga bog'langanlik, yurtsevarlik va daxldorlik tuyg'usi
- Ma'naviyat va ilmning uyg'unligi
- Yoshlar bilan manzilli faoliyat
- Talabalar tashabbuskorligi va erkin muloqot maydoni
- Ustoz-shogird an'analari va ichki muhit barqarorligi

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida tahsil olayotgan talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini oshirish, kundalik axborotlar bilan tezkor va muntazam ravishda xabardor etib borish maqsadida 2025/2026-o'quv yilidan boshlab universitetda **"Ma'rifat darslari"** tashkil etildi.

Vazirlikning 2025-yil 25-fevraldagi 28-xdfu-sonli buyrug'i asosida **"Kelajak soati"** rukni ostida tashkil etilayotgan **"Ma'rifat darslari"**ning dars jadvali asosida barcha talabalarni to'liq qamrab olgan holda <https://milliytarbiya.uz/> platformasidan olingan materiallar asosida rahbarlar va malakali professor-o'qituvchilar tomonidan sifatli o'tilmoqda.

Universitetda talaba-yoshlarni kitob mutolaasiga jalb etish, badiiy savodxonlik darajasini oshirish orqali ularni vatanparvarlik va yurtimiz kelajagiga daxldorlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan **"Ma'rifat ulashib"** loyihasini tashkil etilgan. **"Ma'rifat ulashib"** loyihasi doirasida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi bo'lgan taniqli ijodkorlar, taniqli adiblarning Toshkent davlat sharqshunoslik universitetiga hamda umumta'lim maktablari va ular hududida joylashgan mahallalarga tashriflari amalga oshiriladi.

Universitetda 5 ta ijodiy to'garaklar **"Mangu bitik"** adabiy-ijodiy to'garagi, **"Sharq yulduzi"** teatr studiyasi, **"Sanduvoch"** ashula va raqs ansamli, **"Dutorchilar"** ansambli, **"Sharq navolari"** xor jamoasi, **"Zakovat"** klubi, sport to'garaklari sportning mini-futbol, voleybol va stol tennisi turi bo'yicha **"Sharqshunos"** sport klubi faoliyat yuritadi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi topshirig'iga ko'ra, universitetning Talabalar turar joyida **"Kasbim – mening faxrim"** loyihasi doirasida 2025-2026-o'quv yilidan boshlab **"Kompyuter savodxonligi"** nomli to'garak faoliyati ish boshladi.

Universitetimizda talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va amaliy ko'nikmalarini oshirish maqsadida joriy o'quv yilidan boshlab **"Tikuvchilik to'garagi"** faoliyati yo'lga qo'yilgan. To'garakda talaba-qizlar tikuvchilik asoslari, tikuv mashinasida ishlash, zamonaviy va

milliy kiyimlar tikish hamda andoza olish va modellashtirish sirlarini o'rganishlari mumkin bo'ladi.

– **“Sharq yulduzi”** teatr studiyasi 2025-yil boshida teatr studiyasi tarkibi qayta shakllantirilib, faol va ijodkor talabalar saralab olindi. To'garakka jami 30 nafar talaba jalb qilindi. Mashg'ulotlar haftasiga ikki marotaba belgilangan jadval asosida olib borildi.

Yil davomida sahna nutqi, aktyorlik mahorati, harakat va plastika, rollarga kirish texnikasi bo'yicha muntazam amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi.

To'garak faoliyati davomida **“Sharq yulduzi”** teatr studiyasi tomonidan 2025-2026 o'quv yili davomida quyidagi sahna ko'rinishlari va spektakllar tayyorlandi:

- “Navoiy va Boyqaro” spektakli
- “Ona” spektakli
- Usmon Azim qalamiga mansub “Ogoh bo'ling odamlar” nomli spektakli
- “Giyohvandlikka qarshi kurash” mavzusida ijtimoiy sahna chiqishi
- “Yulduzli tunlar” asari asosida “Bobur” spektakli
- Nasrullo Qobil qalamiga mansub “To'da” spektakli
- Maqsud Shayxzoda romani asosida “Mirzo Ulug'bek” spektakli
- Nazar Eshonqulning “Urush odamlari” asari asosida sahnalashtirilgan spektakl.

– **“Sanduvoch”** ashula va raqs to'garagi universitetning iqtidorli, san'atga qiziqadigan talaba-yoshlarini birlashtirgan ijodiy jamoa hisoblanadi. To'garak tarkibida 30 nafardan ortiq faol a'zo bo'lib, ular orasida yakka ijrochilar, ansambl a'zolari hamda raqs guruhi ishtirokchilari mavjud.

Mashg'ulotlar haftasiga ikki marotaba belgilangan reja asosida olib borildi. Mashg'ulotlarda milliy va jahon san'ati namunalarini o'rganish, sahna madaniyati, vokal va xoreografiya bo'yicha amaliy ko'nikmalarni oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'quv yili davomida amalga oshirilgan ishlar:

To'garak a'zolari universitet miqyosida o'tkazilgan:

- Mustaqillik bayrami tadbirlari,
- Navro'z umumxalq bayrami,
- “Talabalikka bag'ishlov”,
- “Yangi O'zbekiston – yangi taraqqiyot” mavzusidagi ma'naviy-ma'rifiy kechalar,
- Buyuk ajdodlarimiz tavallud sanalariga bag'ishlangan adabiy-badiiy kechalarda faol ishtirok etdilar.

Tadbirlar davomida milliy qo'shiqlar, folklor namunalari hamda zamonaviy sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

– Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 2021-yildan boshlab **“Dutorchilar”** to'garagi tashkil etilgan.

To'garak dutor chalish sirlarini o'rgatish, milliy kuy-qo'shiqlarimizni ijro etish, ijodiy va musiqiy mahoratni oshirish maqsadida tashkil etilgan. To'garakka barcha musiqaga cholg'uga qiziquvchi talabalar hamda xorijlik talabalar jalb etilgan.

2025-2026 o'quv yili mobaynida to'garak a'zolari universitet miqyosida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, bayramlar, ijodiy kechalar, madaniy-ma'rifiy uchrashuvlarda faol ishtirok etib, milliy cholg'u san'atini keng targ'ib qildilar. Xususan, Navro'z umumxalq bayrami, Mustaqillik bayrami, Ma'naviyat haftaliklari, shuningdek, taniqli san'atkor va ustozlar ishtirokidagi ijodiy uchrashuvlarda to'garak a'zolarining chiqishlari tashkil etildi.

– Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzurida faoliyat yuritayotgan **“Mangu bitik”** adabiy-ijodiy to'garagi 2025-2026 o'quv yili davomida talaba-yoshlarning badiiy-estetik tafakkurini yuksaltirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish, ijodkor talabalarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning iste'dodini ro'yobga chiqarish maqsadida tizimli faoliyat olib bordi.

“Mangu bitik” adabiy-ijodiy to'garagida she'riyat bilan birgalikda nasr va publisistika janrlarida talabalarga saboq berila boshlandi. To'garakning har bir mashg'ulotida talabalarga

nazariy bilim berishdan tashqari amaliy shaklda yozuvchi-shoirlar taklif etiladi va ular bilan suhbat uyushtiriladi.

2026-yil boshida to'garak a'zolari safi kengaytirilib, 45 nafar faol va ijodkor talabalar jalb etildi. Yil davomida haftasiga 1 marotaba muntazam ijodiy mashg'ulotlar tashkil etildi (jami 38 ta yig'ilish o'tkazildi).

To'garak faoliyatining ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- talabalar orasidan mumtoz va zamonaviy she'riyat, nasr, dramaturgiya, publitsistika, badiiy tarjima va adabiy tanqidga qiziqadigan iqtidorli yoshlarni aniqlash;

- ijodiy seminarlar, mahorat darslari, mushoiralar, kitob taqdimotlari, mutolaa kechalari va adabiy uchrashuvlarni tashkil etish; - talabalarning ijodiy ishlarini tahrir qilish, nashrga tayyorlash va ommalashtirishga uslubiy ko'mak berish;

- taniqli yozuvchi va shoirlar, tarjimonlar, muharrirlar, adabiyotshunos olimlar hamda nashriyotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- o'zbek va jahon adabiyotining nodir namunalarini mutolaa va tahlil qilish madaniyatini shakllantirish;

- universitetning ma'naviy-ma'rifiy hayotida to'garak a'zolarining faol ishtirokini ta'minlash.

2026-yildan "Shoir-u she'r-u shuur..." loihasi doirasida taniqli shoirlarni taklif etib, ular ishtirokida universitet Madaniyat saroyida nazm va navo kechasi o'tkazib kelinmoqda. Bu loyihaga ko'ra shunday tadbirlar bir yilda to'rt marotaba o'tkaziladi.

Talabalar o'rtasida sportning futbol, voleybol, basketbol, shaxmat, yengil atletika va stol tennisi bo'yicha **"Rektor kubogi"**, **"Talabalar ligasi"**, **"Universiada"**, **"Talaba-yugur"**, **"Sharqshunos talabalarning sport festivali-2026"**, **"Besh tashabbus olimpiadasi"**, **"Yangi O'zbekiston talabalari olimpiadasi"** sport musobaqalari, **"Sport-salomatlik garovi"** shiori ostida yosh o'qituvchilar va talabalar o'rtasida sport musobaqalari, **"Amir Temur vorislari"** nomli harbiy-sport musobaqasi o'tkazildi. Talabalar turar joyida o'qituvchilar va talabalar ishtirokida fakultetlararo spartakiada o'tkazildi.

Sport inshootlarining o'quv mashg'ulotlariga va sport musobaqalar o'tkazilishi uchun sport maydonlarini va yopiq sport zallari kerakli jihozlar bilan ta'minlangan. Universitet asosiy binosida talabalar va o'qituvchi xodimlar uchun Workout sport maydonchasi ishga tushirilgan.

"Yilning eng faol talabasi - 2025" respublika ko'rik tanlovining universitet bosqichi o'tkazilib, 7 ta yo'nalish bo'yicha g'olib sovrindorlar aniqlandi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida iqtidorli, faol, bilimli hamda ilm-ma'rifatga intiluvchan talabalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ta'sis etilgan **"Ogahiy nomidagi maxsus stipendiya"**ga 6 nafar talaba sovrindor bo'ldi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida universitetning **"Eng yaxshi kitobxon" maxsus stipendiyasi** uchun 3 nafar talaba stipendiya sohibi bo'ldi.

Fakultetlar va institutlarda ko'ngilli talabalarning "Oltin qo'l" xayriya tadbirlariga sharoit yaratilib, ularning pishiriq sotuvidan tushgan mablag'lar bolalar uyiga yetkazilishi yo'lga qo'yildi. **"Kitobxon talaba"** ko'rik tanlovi va boshqa kitobxonlik bilan bog'liq tadbirlar yildan yilga kengayib bormoqda. Jumladan, **"Yosh kitobxon" tanlovi** **"Mening O'zbekistonim" videoroliklar tanlovi**, **"Quest step by step"** loyihasi, **"Yurtim qadriyatlari"** ko'rik-tanlovi tashkil etildi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi ta'lim muassasalari pedagog xodimlari va talabalari o'rtasida "Islahotlar bilimdoni" Respublika ko'rik-tanlovi o'tkazildi. **"Islahotlar bilimdoni"** respublika ko'rik-tanlovining **final bosqichida** "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha eng yaxshi kafedra" nominatsiyasida TDSHU Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Universitetda tahsil olayotgan ona tili o'zbek tili bo'lmagan xorijlik talaba-yoshlar o'rtasida **"O'zbek tili – qalbim tarjimoni"** ko'rik-tanlovi o'tkazildi.

Oliy ta'lim tashkilotlari talaba-yoshlari o'rtasida o'tkazilgan **"Talabalar teatr studiyalari"** ko'rik-festivalining 2-hududiy saralash bosqichida universitet jamoasi munosib ishtirok etib, faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tomonidan yoshlarning ma'rifati, ilm hamda tafakkurini yuksaltirish maqsadida **"Ma'rifat maydoni"** ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi.

Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tomonidan tashkil etilgan **"Kitobxon yoshlar ligasi"** onlayn tanlovining 2026-yilgi ilk mavsumi final bosqichida TDSHU talabasi Nigora Yaqubova 145 nafar ishtirokchi orasida faxrli 3-o'rinni egalladi.

"Eng yaxshi kreativ g'oya" respublika tanlovining institut bosqichi bo'lib o'tdi.

Talabalar o'rtasida turli intellektual o'yinlari **"Zakovat"**, **"DEBATE"** intellektual o'yini, **"Munozara"**, **"Tarixiy zakovat"** o'yini, **"Ittifoq Quiz"** intellektual o'yini o'tkazildi.

"VII Sharqshunos talabalar festivali" doirasida **"Sharqshunos kitobxon"** loyihasi, **"Rektor kubogi"** uchun futbol musobaqasi, **"Zakovat QUIZ"** intellektual o'yini, **"Milliy qadriyatlar"** ko'rik tanlovlari bo'lib o'tdi.

"Vatan bo'ylab sayohat" shiori ostida mamlakatimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, yoshlar orasida keng targ'ib etish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'usini mustahkamlash maqsadida **"Ajdodlar xotirasi yodimizda"** (Adiblar xiyoboni, muqaddas qadamjolarga) **"O'zbekiston – jannatmakon diyor"**, **"Biz nechun sevamiz, O'zbekistonni"**, **"Bunyodkorlik yo'lida"** mavzularida professor-o'qituvchilar va talablarning madaniy ekskursiyalarini tashkil etildi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti hamda Alisher Navoiy nomidagi Xalqaro jamoat fondi hamkorligida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan **"Navoiy izdoshlari"** nomli tanlov yuqori saviyada bo'lib o'tdi. Tanlovda g'oliblikni qo'lga kiritgan talabalar joriy yil 9-fevral kuni universitetda Mir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan **"Alisher Navoiy va Sharq Renessansi"** mavzusidagi V xalqaro simpoziumida munosib taqdirlandilar.

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida **"Shoir-u she'r-u shuur..."** nomli nazm va navo kechasi tashkil etildi. Mazkur ma'naviy-ma'rifiy tadbir O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda Madaniyat va ma'rifat kanali hamkorligida o'tkazildi.

Universitetda "Yoshlar kuni" doirasida haftaning har payshanba kuni **"Rektor va yoshlar muloqoti"** uchrashuvlari o'tkazildi.

Universitet talaba qizlari uchun **"Kasb sirlari"** mavzusida treninglar, psixolog va Xotin-qizlar tashkiloti hamkorlikda **"Quloqqa aytiladigan gaplar"** yo'nalishida suhbatlar, talabalar turar joyida tikuvchilik, pazandachilik, kashtado'zlik kurslari tashkil etilgan. Universitet psixologi va xotin-qizlar qo'mitasi hamkorligida yoshlar va talaba-qizlarning psixologik muammolariga qaratilgan **"Ruhiyat ozig'i"** telegramm kanalini ishga tushirilgan.

Yillik ish rejaga asosan guruh tyutorlari bilan birgalikda har bir talabaning ijtimoiy-psixologik pasportining elektron bazasi shakllantirilgan.

Universitet psixologi hamda tyutorlar hamkorligida psixologiyaga qiziquvchi talabalar orasida **"Yosh psixologlar"** klubi tashkil etilib, klubning yillik ish rejasi psixolog tomonidan tuzilgan hamda birinchi prorektor tomonidan tasdiqlangan.

Universitet psixologi tomonidan talaba-yoshlarga muntazam psixologik seminar-trenninglar tashkil qilinib, fakultet va guruh kesimida o'tkazilmoqda. Guruhlarga biriktirilgan tyutorlar hamda TTJlardagi tarbiyachi-pedagoglar tomonidan talabalar orasida aniqlangan huquqbuzarlikka moyil, tarbiyasi og'ir, o'zlashtirilishi past talabalarga psixolog ko'magida tegishli ishlar va muntazam tushuntirish ishlari olib borilib, boshqa bu holat takrorlanmasigi yuzasidan ogohtantirishlar berib kelinmoqda. Universitetda ta'lim olayotgan talabalarning har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllanishi uchun psixologik xizmat muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil, tarbiyasi og'ir, o'zlashtirilishi past bo'lgan talabalar bilan ishlash, ularni ijtimoiy moslashtirish va kelgusida huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida universitetlarda psixologik xizmat ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Huquqbuzalikni oldini olish bo'yicha ko'plab profilaktik ishlar olib borilmoqda. Shu qatorda universitet psixologi va tyutorlar bilan hamkorlikda bugungi kundagi giyohvandlik va psixotrop moddalarni iste'mol qilmaslik, talabalar o'rtasidagi jinoyatlarni oldini olish, talabalar o'rtasida kelib chiqadigan ichki nizolarga barham berish, zo'rvonlikka qarshi kurashish bo'yicha ko'plab profilaktik tadbirlar, davra suhbatlari va shu bilan bir qatorda yakka tartibdagi profilaktik suhbatlar o'tkazib kelinmoqda.

Profilaktika katta inspektori tomonidan 2025-2026 o'quv yili davomida, talaba yoshlar o'rtasida jami 30 dan ortiq **“Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurash”, “Biz tazyiq va zo'rvonlikka qarshimiz”, “Narkotik va psixotrop moddalarga qarshi kurash”, “Diniy ekstremizm va terorizmga qarshi kurash”, “Odam savdosiga qarshi kurashamiz”, “Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash!”, “Inson qadri va huquqlarining ustuvorligi – taraqqiyot poydevori”, Kiberjinoyatchilik-nima-?”, “Giyohvandlik umr zavoli”ga qarshi kurashamiz mavzularida 1000 dan oshiq talabalarni qamrab olgan holda murabbiylik soatlari, davra suhbatlari, ochiq darslar, seminarlar, uchrashuvlar hamda yig'ilishlar **“Umumiy profilaktik tadbirlar”** o'tkazildi.**

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida “Qalqon” jamoatchilik guruhi tashkil etilgan. Hozirgi kunda “Qalqon” jamoatchilik guruhi a'zolari 20 nafarni tashkil etadi. Shundan 18 nafari o'g'il bolalar, 2 nafari qizlar. “Qalqon” jamoatchilik guruhi a'zolari maxsus ajratuvchi belgilarga ega bo'lgan kiyim (forma) va a'zolik guvohnomasi hamda tezkor aloqa uchun radio-alloqa vositasi bilan to'liq ta'minlangan. “Qalqon” jamoatchilik guruhi universitetda jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish maqsadida kunining ikkinchi yarimida faoliyat olib bormoqda. “Qalqon” jamoatchilik guruhi a'zolari tomonidan o'quv yili boshidan buyon profilaktik tadbir, yakka tartibdagi suhbatlar tashkil etilgan. Mazkur faoliyat natijasida universitet hududida 2 ta holatda jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarining barvaqt oldini olishga erishildi. Shuningdek guruh faoliyatini doimiy ravishda nazorat qilish, tezkor ma'lumot almashish maqsadida **“QALQON”** telegram guruhi tashkil etilgan.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tomonidan 2025-2026 o'quv yili davomida xodimlar, talaba-yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish, milliy meros va madaniyatga hurmat ruhini mustahkamlash maqsadida qator muzey va teatr muassasalariga tizimli tashriflar amalga oshirildi.

Jumladan, talabalar uchun quyidagi muzeylarga tashriflar tashkil etildi:

Abdulla Qahhor uy-muzeyi, Islom Karimov nomidagi muzey, Yunus Rajabiy ijod uyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Amir Temur muzeyi hamda Amir Temur xiyoboni, Aloqa tarixi muzeyi, Abdulla Qodiriy uy-muzeyi, Shon-sharaf muzeyi, O'zbekiston Davlat San'at muzeyi, Yunus Rajabiy uy-muzeyi va boshqalar.

Mazkur tashriflar davomida talabalarga ajdodlarimizning boy tarixiy-madaniy merosi, milliy adabiyot va san'at namoyandalari hayoti va ijodi hamda mustaqillik davri taraqqiyot bosqichlari haqida atroflicha ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, talabalar tomonidan Ilhom teatriga tashrif amalga oshirilib, sahna asarlari orqali badiiy tafakkur, estetik did va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida davlat va jamiyat hayotida muhim o'rin tutuvchi bayram va sanalar munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tizimli ravishda tashkil etilib, keng nishonlab kelinmoqda. Mazkur tadbirlar doirasida seminarlar, davra suhbatlari, ochiq muloqotlar hamda ma'rifiy uchrashuvlar o'tkazilib, talaba-yoshlarning tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, 14-yanvar – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligi hamda Vatan himoyachilari kuni, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni, 21-mart – Navro'z umumxalq bayrami, 9-may – Xotira va qadrlash kuni, 1-sentabr – Mustaqillik kuni hamda 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan universitetda turkum ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yuqori saviyada tashkil etilmoqda.

Shuningdek, muhim tarixiy sanalar – 9-fevral buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavallud kuni, 14-fevral davlat arbobi va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud kuni hamda 1-mart

O‘zbekiston xalq shoiri Zulfiya tavallud kuni munosabati bilan ham ilmiy-adabiy kechalar, davra suhbatlari va ochiq muloqotlar o‘tkazilib kelinmoqda.

Universitet brendiga ko‘ra yuksak intellektual salohiyatga ega bo‘lgan, zamonaviy axborot texnologiyalarini puxta egallagan, professional kasb mahorati, malakaviy bilim, mustaqil fikrlash asosida ish yurita oladigan va jahon andozalariga javob beradigan mutaxassis-kadrlarni tayyorlash ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning bosh maqsadidir.


Universitetdagi umumintellektual g‘oya bu – talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, O‘zbekistonimizning qadimiy va boy tarixi, madaniyati, ma’naviy-ma’rifiy ildizlarini o‘rganish, yoshlarimizni mardlik, jasorat va matonat ruhida tarbiyalash, ularni o‘z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste’dodli talabalarni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Ustuvor yo‘nalishlar:





Yoshlar bilan ishlash, tarbiyaviy, ma'naviy - ma'rifiy sohalar, talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish ko'rsatkichlari



2025-2026 O'QUV YILI DAVOMIDA ERISHILGAN NATIJALAR RAQAMLARDA

